

30-Aprel, 2026-yil

KOMIL INSONNI TARBIYALASH YO‘LLARI.

Yusupova Ma’rifat Mirzohidovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: marifatyusupova397@gmail.com

Tel: +998996806606

Xudoyberdiyeva Marjona Akmalovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: xudoyberdiyevam363@gmail.com

Tel: +998700122426

Annotatsiya: *Ushbu maqolada komil insonni tarbiyalash yo‘llari keng va atroflicha yoritilgan bo‘lib, inson shaxsining shakllanishida ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Maqolada komillik tushunchasi, uning ma‘naviy, axloqiy va intellektual jihatlarini izohlanadi hamda barkamol insonni voyaga yetkazishda oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, odoq-axloq va insonparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi ta‘kidlanadi. Komil insonni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni saqlab qolish hamda ularni zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Komil inson, ta‘lim-tarbiya, ma‘naviyat, axloq, intellekt, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, oila, maktab va jamiyat, barkamol shaxs, an‘ana va urf-odatlar.*

Annotation: *This article comprehensively examines the ways of educating a well-rounded individual, analyzing the role and importance of the educational process in the formation of human personality. The concept of human perfection is explained through its spiritual, moral, and intellectual aspects, while the importance of cooperation between family, school, and society is highlighted as a key factor in raising a harmoniously developed person. The article also emphasizes the relevance of educating the younger generation in the spirit of patriotism, honesty, diligence, morality, and humanism, and substantiates the necessity of preserving national values, traditions, and customs, as well as integrating them with modern knowledge in the process of forming a well-rounded individual.*

Keywords: *well-rounded individual, education and upbringing, spirituality, morality, intellect, patriotism, national values, family, school and society, harmoniously developed person, traditions and customs.*

Аннотация: *В данной статье всесторонне рассматриваются пути воспитания гармонично развитой личности, анализируется роль и значение образовательного*

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

процесса в формировании личности человека. Понятие совершенства человека раскрывается через его духовные, нравственные и интеллектуальные аспекты, при этом подчеркивается важность сотрудничества семьи, школы и общества как ключевого фактора в воспитании всесторонне развитого человека. Также в статье акцентируется внимание на актуальности воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма, честности, трудолюбия, нравственности и гуманизма, а также обосновывается необходимость сохранения национальных ценностей, традиций и обычаев и их интеграции с современными знаниями в процессе формирования гармоничной личности.

Ключевые слова: *гармонично развитая личность, образование и воспитание, духовность, нравственность, интеллект, патриотизм, национальные ценности, семья, школа и общество, всесторонне развитый человек, традиции и обычаи.*

KIRISH

Komil inson g‘oyasi va uni amalga oshirishga bo‘lgan intilish insoniyat sivilizatsiyasining ma’no-mazmunini tashkil qiladi. Komil inson haqidagi ta’limot insonning ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan yetuklik darajasiga ko‘tarilishini ko‘zda tutadi. Yurtimizda komil insonni voyaga yetkazish masalasiga azaldan katta e’tibor qaratilgan. Natijada tariximizda o‘zining yuksak ma’naviy fazilatlari va kuchli intellektual salohiyati bilan jahon ahlini hayratga solgan ko‘plab barkamol insonlar yetishib chiqqan. Ular qoldirgan ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy meros xalqimizning bebaho boyligiga aylangan. Masalan, Abu Ali ibn Sino qomusiy olim sifatida tibbiyot, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, psixologiya, fiziologiya, filologiya, falsafa, axloq, estetika va jismoniy tarbiya kabi ko‘plab sohalarda chuqur bilimga ega bo‘lgan. Uning asarlari nafaqat O‘rta Osiyoda, balki Sharq va G‘arb mamlakatlarida ham yuqori baholangan va o‘rganilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ibn Sino 20–25 yoshidayoq yirik olim sifatida tan olingan. Shu jihatdan aytish mumkinki, u tom ma’noda komil inson darajasiga yetgan buyuk allomalardan biridir. Yana bir buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy o‘z asarlarida komillik g‘oyasini keng targ‘ib qilgan. U “Kamol et kasbkim” deya insonni turli fazilatlarni egallashga chaqirgan. Buyuk mutafakkirlar ta’kidlaganidek, inson o‘zini hirs, ta’ma, nafs, g‘aflat, nodonlik va yovuzlik kabi illatlardan poklamasa, komillikka erisha olmaydi. Alisher Navoiy komil insonni “ahli ma’ni” — ya’ni fikrli, tafakkurli insonlar deb bilgan. Fikrsiz insonda chuqur ma’no va ongli yondashuv shakllanmaydi. Komil insonlar qatoriga oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoyi insonlar kiradi. Ularda yuksak mushohada, mustaqil fikrlash va chuqur tafakkur qobiliyati rivojlangan bo‘ladi. Bunday insonlar ongida diyonat, adolat, imon, ishq, dard kabi yuksak fazilatlar mujassam bo‘ladi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida ezgulik, saxovat, poklik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, sadoqat, qanoat, rostgo‘ylik, insof, adolat va bag‘rikenglik kabi fazilatlarni alohida ta’riflab, ruhiy kamolot yo‘llarini yoritib bergan. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning asosiy belgisi

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

insonning ezgulikka, insonparvarlikka va ijtimoiy farovonlikka bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Komil inson jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jamiyat ham komil insonni tarbiyalash uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Erkinlik va mustaqillik komil inson g‘oyasini amalga oshirishda asosiy omillardan biridir.

ASOSIY QISM

Ma‘lumki, ta‘lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish va shu asnodda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga e‘tibor qaratiladi. O‘quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashning asosini o‘zlikni anglash, mustaqil fikrlashva o‘z o‘zini boshqarishga o‘rgatish tashkil etadi. Ushbu tarbiya hozirgi kunda pedagogikaningeng dolzarb muammosi sifatida o‘rganilmoqda. Chunki, barcha davrlarda ham taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tish uchun har qanday millat o‘zining o‘tmishi va bugunini yangidan anglash va shunga asosan kelajagini belgilashi zarur bo‘ladi. Buning uchun ma‘lum axloqiy me‘yorlar doirasida yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetishtirish jarayoni millat va jamiyatning bosh vazifasi bo‘lib qoladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda har bir pedagogdan yoshlarimizni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, ijtimoiy zarur foydali mehnatga tayyorlash, tarbiyaviy ta‘sirning uzluksizligini ta‘minlash orqali hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlash joizki, komil inson tarbiyasi deganda yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik. Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo‘lgan sog‘lom avlodni tarbiyalash, oilaning faoliyati bilan chambar-chas bog‘liqdir. Jismonan sog‘lom, ma‘nan kuchli va aqlan yetuk avlodni kamol toptirish –oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir. Oilaning ma‘naviyati, uning ahloqiy fazilatlariga bolalikda oilada asos solinadi, keyin bu tushunchalar tarbiya va ma‘rifat tizimida rivojlanadi va to‘liq shakllanadi. “Odamzod uchun bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiliyati, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga egabo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi –bularning barchasi avvalo uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab berad. Oilaviy muhit o‘ziga xos bo‘lib, uning har bir a‘zosi yangi avlod, mustahkam va barqaror sog‘lom oilani barpo etishga ma’suldir. Shuning uchun biz yoshlarimizni o‘zlarini moddiy jihatdan ta‘minlay oladigan, bilimli, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan, komil qilib tarbiyalash o‘zbek oilalarining asosiy maqsadini tashkil qiladi. O‘zbek oilasining o‘z qiyofasi, milliy xususiyati, milliy axloqi, didi alohida ajralib turadi. O‘zbek oilasining tarixiy an‘analari, urf-odatlar, udumi, rasm-rusmlari, ahloq meyorlari, turmush-tarzi, ma‘naviy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlari va xususiyatlari g‘arb xalqlari oilasidan tubdan farq qilib, andishalik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, mehmondo‘stlik, saxiylik, to‘g‘ri so‘zlik kabi fazilatlar farzandlar tarbiyasiga doimiy singdirib boriladi va go‘daklik chog‘idayoq alohida e‘tibor ko‘rsatiladi. “Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshiyomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisoli bosma qog‘oz

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o‘ziga shimib-singdirib oladi. uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi”³. O‘zbek oilalari o‘z ichiga totuv yashash, poklik, intizomlik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik, yaxshilik, mehribonlik, mehnatsevarlik, ozodalik, tejamkorlik, kamtarlik, bunyodkorlik, kabi ahloqiy hislatlarni qamrab oladi. shundan kelib chiqib xalqimizning “Yaxshi odam farzandini yomon bo‘ldi deb kuyinma, yomon odam farzandini yaxshi bo‘ldi deb suyinma”, “Qariysan, qartasan, asli naslingga tortasan”, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, -degan maqollar zamirida oiladagi tarbiyaga bog‘liq bo‘lgan sermazmun falsafiy mushohada aks etgani ham bejiz emas. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asarida, -“...Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi qaxramonlarning o‘zaro muomala va muloqatlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham “siz”lab gapirishi misolida ota-bobolarmizning oila ma’naviyatiga qanchalik katta e’tibor berganiga ishonch hosil qilaman”⁴, -deb ta’kidlaydi. Insondagi yetuklik va komillik hislatlarining ilk bosqichi avvalo, oila bag‘rida vujudga keladi va oila muhitida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2018, 52 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi F-5465-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoyishi.
4. Borev Y. Estetika: Uchebnik. –Moskava: Visshaya shkola, 2002. –511 s.
5. Gumelyov L. Drevniye tyurki. –Moskva: Ayris-press, 2016. –560 s.
6. A. Guseynov. Filosofiya –misl i postupok: Stati, dokladi, leksii, intervyu. SPb.: SPbGUP, 2012. –848 s.
- 11 O‘sha asar. –B.244.